Isaqov Ilyosjon Islomjon o‘g‘li, Falsafa va dinshunoslik kafedrasi stajyor o‘qituvchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, Qo‘qon davlat universiteti, Qo‘qon shahar, O‘zbekiston.

Исаков Ильёсжон Исломжон угли — стажёр-преподаватель кафедры философии и религиоведения, доктор философии (PhD) по философским наукам, Кокандский государственный университет, г. Коканд, Республика Узбекистан.

Isaqov Ilyosjon Islomjon o‘g‘li — Trainee Lecturer at the Department of Philosophy and Religious Studies, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy, Kokand State University, Kokand, Republic of Uzbekistan.

YETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARNING IJTIMOIYLASHUVI HAMDA JAMIYATGA INTEGRATSIYALASHUVINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СОЦИАЛИЗАЦИИ И ИНТЕГРАЦИИ В ОБЩЕСТВО ДЕТЕЙ-СИРОТ И ДЕТЕЙ, ОСТАВШИХСЯ БЕЗ ПОПЕЧЕНИЯ РОДИТЕЛЕЙ

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE SOCIALIZATION AND SOCIAL INTEGRATION OF ORPHANS AND CHILDREN DEPRIVED OF PARENTAL CARE

Annotatsiya. Maqolada yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ijtimoiylashuvi va jamiyatga integratsiyalashuvi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Muammoning dolzarbligi muassasa bitiruvchilarining mustaqil hayotga moslashuvidagi qiyinchiliklar bilan belgilanadi. Tadqiqotda strukturaviy-funksional, fenomenologik, qiyosiy-falsafiy va tizimli yondashuvlardan foydalanildi. Natijada bunday bolalar ijtimoiylashuvining o’ ‘ziga xos ziddiyatlari aniqlanib, integratsiyaning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va psixologik o‘lchamlari tizimlashtirildi. Tan olish,

ijtimoiy kapital va identiklik tushunchalari asosida integratsiya modeli hamda amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Аннотация. В статье проводится социально-философский анализ социализации и интеграции в общество детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей. Актуальность темы определяется трудностями адаптации выпускников учреждений к самостоятельной жизни. Использованы структурно-функциональный, феноменологический, сравнительно-философский и системный подходы. Выявлены противоречия социализации таких детей, систематизированы экономическое, социальное, культурное и психологическое измерения интеграции. На основе понятий признания, социального капитала и идентичности предложены модель интеграции и практические рекомендации.

Abstract. The article provides a socio-philosophical analysis of the socialization and social integration of orphans and children deprived of parental care. The relevance of the topic is determined by the difficulties care leavers face in adapting to independent life. Structural-functional, phenomenological, comparative-philosophical and systems approaches were applied. The specific contradictions of such children's socialization are identified, and the economic, social, cultural and psychological dimensions of integration are systematized. Based on the concepts of recognition, social capital and identity, an integration model and practical recommendations are proposed.

Kalit so‘zlar: ijtimoiylashuv, ijtimoiy integratsiya, yetim bolalar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, identiklik, tan olish, ijtimoiy kapital, stigma, deinstitutsionalizatsiya.

Ключевые слова: социализация, социальная интеграция, дети-сироты, дети без попечения родителей, идентичность, признание, социальный капитал, стигма, деинституционализация.

Keywords: socialization, social integration, orphans, children without parental care, identity, recognition, social capital, stigma, deinstitutionalization.

KIRISH

Inson ijtimoiy mavjudot sifatida tug‘ilmaydi, balki jamiyat bilan muloqot jarayonida shunday bo‘lib shakllanadi. Bu jarayonning birinchi va eng muhim bosqichi oilada kechadi: bola aynan oilada tilni, qadriyatlarni, xulq-atvor me’yorlarini va o‘zini boshqalar bilan bog‘liq shaxs sifatida anglashni o‘rganadi. Oila muhitidan mahrum bo‘lgan bola uchun esa ijtimoiylashuv tabiiy oqimdan chiqib, maxsus tashkil etilishi lozim bo‘lgan murakkab jarayonga aylanadi.

BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasida oila muhitidan vaqtincha yoki doimiy mahrum bo‘lgan bola davlatning alohida himoyasi va yordamiga haqli ekani belgilangan [3]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda ham bunday bolalarni tarbiyalash va ularning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash davlat va jamiyat zimmasiga yuklatilgan [1; 2].

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimi bolaning moddiy ehtiyojlarini ma’lum darajada qondirsa-da, uning jamiyatga to‘laqonli kirib borishi, ya’ni integratsiyalashuvi hamon dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Xalqaro tadqiqotlarda muassasa bitiruvchilarining ta’lim, bandlik va uy-joy masalalarida tengdoshlariga nisbatan ancha zaif holatda ekani qayd etilgan [16]. Bu muammoning ildizlari faqat iqtisodiy emas, balki shaxsning shakllanishi, identiklik va ijtimoiy tan olinish bilan bog‘liq falsafiy qatlamlarga borib taqaladi.

Tadqiqotning maqsadi yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ijtimoiylashuvi hamda jamiyatga integratsiyalashuvining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berish va integratsiyani samarali tashkil etish yo‘llarini asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: ijtimoiylashuv tushunchasining falsafiy talqinlarini tahlil qilish; oila muhitisiz ijtimoiylashuvning o‘ziga xos ziddiyatlarini aniqlash; integratsiyaning asosiy o‘lchamlarini tizimlashtirish; O‘zbekiston sharoitida integratsiya modelini taklif etish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Shaxsni jamiyat hayotiga tayyorlash masalasi Sharq falsafasida azaldan tarbiya muammosi bilan uzviy bog‘liq holda qaralgan. Abu Nasr Forobiy insonning kamolotga faqat jamoa ichida, boshqalar bilan hamkorlikda erisha olishini ta’kidlagan [5]. Abdulla Avloniy esa “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiyani millat uchun hayot-mamot masalasi deb bilgan va uning oiladan boshlanishini alohida qayd etgan [6]. Bu qarashlar ijtimoiylashuvni shaxsiy emas, balki jamoaviy mas’uliyat sifatida talqin qilishga asos bo‘ladi.

G‘arb ijtimoiy falsafasida ijtimoiylashuv nazariyasi bir necha yo‘nalishda rivojlangan. J.G.Mid insonning “Men”i boshqalar bilan ramziy muloqot jarayonida, “umumlashgan boshqa” nuqtai nazarini o‘zlashtirish orqali shakllanishini asoslagan [7]. P.Berger va T.Lukman birlamchi va ikkilamchi ijtimoiylashuvni farqlab, birlamchi ijtimoiylashuv hissiy yaqin “ahamiyatli boshqalar” orqali kechishini va shaxs uchun eng chuqur iz qoldirishini ko‘rsatgan [8]. T.Parsons oilani bola shaxsini ijtimoiy tizimga moslashtiruvchi asosiy institut sifatida tahlil qilgan [9].

Muassasaviy muhitning shaxsga ta’siri E.Gofmanning “total institutlar” konsepsiyasida chuqur yoritilgan: bunday muassasalarda hayotning barcha jabhalari yagona tartib asosida tashkil etilib, individuallik cheklanadi [10]. Gofmanning stigma nazariyasi esa ijtimoiy tamg‘a shaxs identikligini qanday “buzishi” va uning jamiyat bilan munosabatlarini qiyinlashtirishini ko‘rsatadi [11]. E.Eriksonning identiklik nazariyasiga ko‘ra, o‘smirlik davrida barqaror identiklik shakllanmasa, shaxs rollar chalkashligiga duch keladi [12].

P.Burdyening ijtimoiy kapital haqidagi ta’limoti integratsiyani tushunishda muhim ahamiyatga ega: shaxsning jamiyatdagi imkoniyatlari uning ijtimoiy aloqalar tarmog‘i bilan belgilanadi [13]. A.Xonnetning tan olish nazariyasi esa shaxsning to‘laqonli shakllanishi uchun muhabbat, huquqiy tan olinish va ijtimoiy qadrlanish kabi uch shakldagi tan olinish zarurligini asoslaydi [14]. U.Bronfenbrennerning ekologik nazariyasi bolaning rivojlanishini oila,

maktab, mahalla va keng jamiyat kabi o‘zaro bog‘liq tizimlar ichida ko‘rib chiqadi [15].

Empirik tadqiqotlar ham bu xulosalarni tasdiqlaydi. M.Steyn muassasa bitiruvchilarining mustaqil hayotga o‘tishi tengdoshlariga nisbatan ancha erta, keskin va qo‘llab-quvvatlovsiz kechishini ko‘rsatgan [16]. M.van Ayzendoorn va hammualliflarining tizimli sharhida muassasaviy tarbiyaning bola rivojlanishiga salbiy ta’siri qayd etilgan [17]. O‘zbek tadqiqotchilarining ishlarida esa mavzu asosan huquqiy va institutsional jihatdan yoritilgan [18; 19; 20], ijtimoiylashuv va integratsiyaning yaxlit ijtimoiy-falsafiy tahlili hali yetarlicha amalga oshirilmagan. Maqolaning ilmiy yangiligi ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini dialektik yondashuv va tarixiylik tamoyili tashkil etadi. Ijtimoiylashuvni jamiyat institutlari tizimi ichida o‘rganishda strukturaviy-funksional tahlil, bolaning ichki kechinmalari va identikligini tushunishda fenomenologik yondashuv qo‘llanildi. Sharq va G‘arb mutafakkirlarining qarashlarini solishtirishda qiyosiy-falsafiy tahlildan, integratsiya omillarini yaxlit o‘rganishda tizimli yondashuvdan foydalanildi. Xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujjatlar kontent-tahlil, empirik tadqiqot natijalari esa umumlashtirish usuli orqali falsafiy jihatdan talqin qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oila muhitisiz ijtimoiylashuvning ziddiyatlari. Berger va Lukman ta’kidlaganidek, birlamchi ijtimoiylashuv hissiy yaqin kattalar orqali kechadi va shaxs dunyoqarashining poydevorini tashkil etadi [8]. Muassasa sharoitida esa “ahamiyatli boshqalar” rolini almashinib turuvchi tarbiyachilar bajaradi, bu esa barqaror namuna va hissiy bog‘lanishni zaiflashtiradi. Natijada bolaning ijtimoiylashuvida bir qator falsafiy ziddiyatlar yuzaga keladi (1-jadval).

1-jadval. Oila va muassasa sharoitidagi ijtimoiylashuvning qiyosiy tavsifi (muallif ishlanmasi)

Ijtimoiylashuv jihati	Oila sharoitida	Muassasa sharoitida	Falsafiy ziddiyat
“Ahamiyatli boshqalar”	Doimiy, hissiy yaqin ota-ona	Almashinib turuvchi tarbiyachilar	Yaqinlik va begonalik
Ijtimoiy rollar	Farzand, aka-uka, qo‘shni, mehmon	Asosan “tarbiyalanuvchi” roli	Ko‘p rollilik va bir rollilik
Qaror qabul qilish	Yoshiga mos mustaqillik	Qat’iy tartib, tashqi nazorat	Erkinlik va tobelik
Maishiy tajriba	Pul, oziq-ovqat, uy yumushlari	Tayyor xizmatlar	Mustaqillik va iste’molchilik
Ijtimoiy aloqalar	Qarindoshlar, mahalla tarmog‘i	Yopiq, muassasa ichidagi doira	Ochiqlik va izolyatsiya
Identiklik	Oila tarixi va nasl-nasab	“Mehribonlik uyi bolasi” tamg‘asi	O‘zlikni anglash va stigma

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, muammo bolaning moddiy ta’minotida emas, balki ijtimoiy tajribaning torligi va bir tomonlamaligida. Gofman ta’riflagan “total institute” mantig‘i bolani tartibga bo‘ysunuvchi, lekin tashqi dunyoda mustaqil harakat qilishga tayyor bo‘lmagan shaxs sifatida shakllantirish xavfini tug‘diradi [10]. Bu holat “o‘rganilgan ojizlik” va ijtimoiy qaramlik kayfiyatini keltirib chiqarishi mumkin.

Identiklik va tan olinish muammosi. Eriksonning fikricha, o‘smirlik davrining asosiy vazifasi barqaror identiklikni shakllantirishdir [12]. Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan o‘smir uchun bu vazifa ikki barobar murakkab: u

“Men kimman va qayerdanman?” degan savolga oila tarixi orqali javob topa olmaydi. Xonnet nazariyasi nuqtai nazaridan esa bunday bolalar ko‘pincha tan olinishning birinchi shakli, ya’ni muhabbat va hissiy qo‘llab-quvvatlashdan mahrum bo‘ladi [14]. Jamiyatdagi stigma esa uchinchi shakl, ya’ni ijtimoiy qadrlanishga to‘siq bo‘ladi [11]. Demak, integratsiya faqat bolaning jamiyatga moslashuvi emas, balki jamiyatning ham bolani teng huquqli a’zo sifatida qabul qilishi, ya’ni ikki tomonlama jarayondir.

Integratsiyaning o’lchamlari. Tahlil natijasida ijtimoiy integratsiyaning to‘rt asosiy o‘lchami ajratildi va har biri bo‘yicha to‘siqlar hamda ularni bartaraf etish mexanizmlari tizimlashtirildi (2-jadval).

2-jadval. Yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar integratsiyasining o‘lchamlari (muallif ishlanmasi)

O’lcham	Asosiy to’siqlar	Integratsiya mexanizmlari
Iqtisodiy	Kasbiy malakaning yetishmasligi, uy-joy va moliyaviy savodxonlik muammosi	Kasbga yo‘naltirish, ish o‘rinlari kvotasi, uy-joy bilan ta’minlash, moliyaviy savodxonlik treninglari
Ijtimoiy	Ijtimoiy aloqalar tarmog‘ining torligi, ijtimoiy kapital tanqisligi [13]	Murabbiylik (mentorlik), mahalla va ko’ngillilar tarmog‘i, bitiruvchilar uyushmalari
Madaniy-ma’naviy	Oilaviy an’analar va milliy qadriyatlar tajribasining kamligi	Oilaviy shakllarda tarbiya, mahalla tadbirlari, bayram va marosimlarda ishtirok
Psixologik	Identiklik inqirozi, stigma, ishonchsizlik, o‘rganilgan ojizlik	Psixologik hamrohlik, tan olinish muhiti, o‘z-o‘zini qadrlashni rivojlantirish

Integratsiyaning ekologik modeli. Bronfenbrenner nazariyasiga tayanib [15], integratsiyani bir-biriga bog‘liq to‘rt darajada tashkil etish maqsadga muvofiq. Birinchi daraja bolaning yaqin muhiti bo‘lib, unda barqaror kattalar bilan hissiy rishta shakllantiriladi (patronat oila, vasiy, murabbiy). Ikkinchi daraja maktab, kollej va mahalla bo‘lib, bola bu yerda turli ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi. Uchinchi daraja ijtimoiy xizmatlar, ish beruvchilar va fuqarolik jamiyati institutlaridan iborat bo‘lib, ular bolaning ijtimoiy kapitalini kengaytiradi. To‘rtinchi daraja jamiyatning qadriyatlar tizimi va davlat siyosati bo‘lib, u stigmani kamaytirish va teng imkoniyatlarni kafolatlashga xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlarning integratsion salohiyati. O‘zbek jamiyatida mahalla, mehr-oqibat va hasharga asoslangan jamoaviy yordam an’analari integratsiya uchun katta imkoniyat yaratadi. Avloniy ta’kidlaganidek, tarbiya butun jamiyatning ishidir [6]. Mahalla bolaning ijtimoiy aloqalar tarmog‘ini kengaytiruvchi, uni jamoaviy hayotga jalb etuvchi va stigmani yumshatuvchi tabiiy muhit bo‘la oladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda muassasaviy tarbiyadan oilaviy shakllarga o‘tish va hududiy ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar ham ana shu yondashuvga mos keladi [18; 19].

Mustaqil hayotga o‘tish davri. Steynning tadqiqotlariga ko‘ra, muassasa bitiruvchilarining muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun o‘tish davrining bosqichma-bosqichligi, barqaror kattalar bilan aloqaning saqlanishi va 18 yoshdan keyin ham qo‘llab-quvvatlashning davom etishi hal qiluvchi ahamiyatga ega [16]. Falsafiy nuqtai nazardan bu davr bolaning tobelikdan erkinlikka, obyektlikdan subyektlikka o‘tishini anglatadi. Shu bois integratsiyaning yakuniy mezoni bolaning jamiyatda nafaqat yashay olishi, balki unga o’z hissasini qo’sha olishi, ya’ni faol va mas’uliyatli fuqaroga aylanishidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ijtimoiylashuvi oila muhitining yo‘qligi sababli bir qator falsafiy ziddiyatlar

bilan kechadi: yaqinlik va begonalik, erkinlik va tobelik, ochiqlik va izolyatsiya, o‘zlikni anglash va stigma. Ularning jamiyatga integratsiyalashuvi esa iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma’naviy va psixologik o‘lchamlarni qamrab olgan, bola va jamiyat o‘rtasidagi ikki tomonlama jarayondir. Integratsiyaning falsafiy asosini tan olish, ijtimoiy kapital va barqaror identiklik tashkil etadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Ijtimoiylashuvni tashkil etishda muassasaviy shakllardan oilaviy shakllarga (patronat, vasiylik, farzandlikka olish) o‘tishni jadallashtirish va bolaning barqaror “ahamiyatli boshqalar” bilan rishtasini ta’minlash.
2. Muassasalar va oilaviy bolalar uylarida bolalarning mustaqil qaror qabul qilish, maishiy va moliyaviy tajriba orttirishini ta’minlaydigan dasturlarni joriy etish.
3. Har bir bitiruvchiga kamida 23 yoshgacha hamroh bo‘ladigan murabbiylik tizimini yaratish va bitiruvchilar uyushmalarini qo‘llab-quvvatlash.
4. Mahalla institutini bolalarning ijtimoiy aloqalar tarmog‘ini kengaytirish va jamoaviy hayotga jalb etishning asosiy bo‘g‘iniga aylantirish.
5. Ommaviy axborot vositalari va ta’lim muassasalarida yetim bolalarga nisbatan stigma va stereotiplarni kamaytirishga qaratilgan ma’rifiy ishlarni kuchaytirish.
6. Ijtimoiy xodimlar, tarbiyachilar va psixologlarni tayyorlashda ijtimoiylashuv falsafasi, tan olish etikasi va identiklik psixologiyasi asoslarini o‘qitishni kengaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2008-yil 7-yanvar, O‘RQ-139.
3. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya. BMT Bosh Assambleyasining 44/25-sonli rezolyutsiyasi. – Nyu-York, 1989.
4. Guidelines for the Alternative Care of Children. UN General Assembly Resolution A/RES/64/142. – New York, 2009.

5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
7. Mead G.H. Mind, Self, and Society. – Chicago: University of Chicago Press, 1934.
8. Berger P.L., Luckmann T. The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge. – New York: Doubleday, 1966.
9. Parsons T., Bales R.F. Family, Socialization and Interaction Process. – Glencoe: Free Press, 1955.
10. Goffman E. Asylums: Essays on the Social Situation of Mental Patients and Other Inmates. – New York: Anchor Books, 1961.
11. Goffman E. Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1963.
12. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton, 1968.
13. Bourdieu P. The forms of capital // Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. – New York: Greenwood, 1986. – P. 241–258.
14. Honneth A. The Struggle for Recognition: The Moral Grammar of Social Conflicts. – Cambridge: Polity Press, 1995.
15. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.
16. Stein M. Research review: young people leaving care // Child & Family Social Work. – 2006. – Vol. 11, No. 3. – P. 273–279.
17. Van IJzendoorn M.H., Bakermans-Kranenburg M.J., Duschinsky R. et al. Institutionalisation and deinstitutionalisation of children 1: a systematic and integrative review of evidence regarding effects on development // The Lancet Psychiatry. – 2020. – Vol. 7, No. 8. – P. 703–720.

18. Yetim bolalar va ota-ona qaramog’idan mahrum bo‘lgan bolalar ijtimoiy himoyasi instituti // Zenodo. – 2024. – DOI: 10.5281/zenodo.11408078.
19. Yetim va ota-ona qaramog’idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda integratsiyalashgan yondashuvning ahamiyati // Yangi O‘zbekistonda tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – 2026. – 4(1). – B. 413–414.
20. Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimining institutsional asoslari. – 2022. – ResearchGate.